

SOHIBQIRON AMIR TEMUR XAZINASI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIY SOHALARGA SARFLANISHI (DAVRIY MANBALAR TAHLILI)

Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li

BuxDU PI "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Samadov Abdusamad Anvar o'g'li

BuxDU PI tarix ta'lim yo'nalishi 1-4tar 22 gurux talaba

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur xazinası, unga kelib tushadigan daromadlar, soliqlar, egallangan hududlardan tushgan daromadni mamlakat poytaxti Samarqand shahriga keltirilishi bilan bog'liq masalalar xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'z: *soliqlar, xazina, daromad, devonbegi, vaziri sipoh, tijorat vazir, soliqo'lpon.*

Amr etdimki, ra'iyatdan mol-xiroj yigishda ularni ogir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, ra'iyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambagallashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi.

•«Temur tuzuklari»

O'rta asrlarning mazkur yirik harbiy-feodal davlatida avval hokimi mutlaq — Amir Temur Kuragon, so'ngra uning vorislari bevosita hukmdorlik qildilar. Ulkan saltanatning boshqaruv prinsipati, markaziy ma'muriyatning bosh vazir — devonbegi boshliq etti vazirdan iborat arkoni davlat boshqargan. Ulardan birinchisi — mamlakat va ra'iyat ishlari bo'yicha vazir viloyat va tumanlardan to'planadigan hosil, soliqo'lponlar hamda mamlakatdagi obodonchilik ishlari bilan shug'ullangan. Ikkinchisi — vaziri sipoh, ya'ni harbiy ishlar bo'yicha vazir askarlar maoshi, oziqovqat va qurol-yarog'lari ta'minoti bilan mashg'ul bo'lgan. Uchinchisi — tijorat vaziri savdogarlarning mol-mulklaridan olinadigan zakot va boj, chorvachilikdan yig'iladigan daromad, egasiz qolgan molmulkni tasarruf etish, meros va merosxo'rlar bilan bog'liq masalalarni hal etish kabi ishlarni bajargan. To'rtinchisi — saltanat ishlarini yurituvchi vazir, ya'ni moliya ishlari vaziri davlat xazinasidan sarf etiladigan xarajatlar, umuman saltanat kirim-chiqimlarini boshqargan. Ana shu to'rt vazirdan tashqari, chegara viloyatlari va tobe' mamlakatlar ishlarini nazorat qilib turish uchun maxsus uch nafar vazir tayin etilgan, ular mazkur viloyat va mamlakatlardan davlat xazinasiga kelib

tushadigan daromadlarni nazorat qilish va ularga bog'liq moliyaviy masalalar bilan mashg'ul bo'lgan. O'z navbatida, ular saltanatning bosh nazorat hay'ati — «xolisa»ni tashkil etishgan.

Amir Temur ulkan harbiy muvaffaqiyatlarni nishonlash uchun ayrim hollarda Samarqand va boshqa shaharlar, hatto qishloqlar fuqarolarini 1 — 2 yilga soliqdan ozod qilgan. Lekin xazinaning ahvoli hamma vaqt ham bir xil bo'lmagan. Xazinadagi mablag'lar etishmaganida sipohlarga pul o'rniga kvitansiya berilganligi ham solnomalarda qayd qilingan. Amir Temur devonidagi 4 vazir tomonidan kirim-chiqim smetasini tuzish mahalliy mahkamalarga nisbatan qulayroq bo'lgan esa-da, mahalliy mahkamalarda xarajat turlarining ko'pligi ishni ancha murakkablashtirgan bo'lishi kerak. Markaziy devonda xizmat qiluvchi vazirlar o'rtasidagi mehnat taqsimotida moliya masalalari markaziy o'rin egallagan. Bunda har bir vazirlik bo'yicha kirim-chiqim smetasi tuzilgan, tushadigan daromadlar va qilingan harajatlar har kuni hisoblab borilgan. Byudjet kurtaklari faqat markaziy devondagina emas, balki mahalliy boshqaruv mahkamalarida ham rivojlana boshlagan.

«Temur tuzuklari»da har qanday jamiyat uchun iqtisodiyot ustuvorligi ifodalaniib, quyidagi xulosa berilgan: «... davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan fikdir. Dono vazir bularning har uchalasini yaxshi ahvolda saranjom tutadi». Bu xulosa ko'proq xazinaga taalluqlidir, chunki o'zbek davlatchiligining Amir Temurgacha bo'lgantarixida qadim zamonlardan beri xazinani idora qilishda Saljuqiylar sulolasining mashhur vaziri Nizomulmulkning «Siyosatnoma»sida tushuntirib berilgan tartibot saqlanar edi. Hozirgi zamon tili bilan aytganda, davlat ixtiyoridagi xazina — ikki fond dan tarkib topgan. Birinchisi asosiy xazina bo'lib, bunda uzoq yillar davomida avloddan-avlodga meros bo'lib kelgan durdonalar saqlanar edi. Ikkinchi fond joriy xarajatlar uchun mo'ljallangan, buning uchun mablag' etishmaganda birinchi fondan «qarz» olinar edi. Yillar davomida xazinaning ahvoli o'zgarib turgan, ba'zan taqchillik eezilib, uni to'ldirish uchun qo'shimcha soliq va yig'inlar chiqarilgan. Amir Temurning xazinani boshqarishdagi tartiboti shundan iboratki, u xazinadagi birinchi jamg'arma fondini saqlab qolgan holda ikkinchi fondning shakllanishi va sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirdi. Har ikkala fondagi mablag'lar harakati yozib boriladigan bo'ldi. Bundan tashqari, ikkinchi fond xarajatlariga mablag'lar berish vazirlar zimmasiga yuklatildi, har bir vazir o'ziga topshirilgan daromad va xarajatlar ustidan nazorat olib boradigan bo'ldi. Eng muhimi markaziy xazina bilan uluslar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarga aniqlik kiritildi. Mahalliy ehtiyojlar belgilangan tartibda mablag' bilan ta'minlanadigan bo'ldi. Amir Temur aksar hollarda xazinaning joriy xarajatlar manbai

hisoblangan ikkinchi bo'limiga alohida e'tibor bergan. Bu hol Amir Temurning soliqlarning demokratik xususiyatini yaxshi, chuqur o'rganganligidan dalolat beradi. Tarixdan ma'lumki, bir davlat ikkinchi davlat hududini o'z ixtiyoriga olsa, engilgan davlatdan tovon puli — boj olgan, soliqlarni engillashtirmasdan, yangi soliqlar kiritish hisobiga soliq yukini og'irlashtirgan. Amir Temur bunday usullardan foydalanmagan. «Amr etdimki, — deb yozgan edi u «Tuzuklar»da, — ra'iyatdan mol xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, ra'iyatni xonavayron qilish davlat xazinasini kambag'allashtirishga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi» Amir Temur davlatni boshqarishining ilk davrida mo'g'ullardan va mahalliy hokimlardan unga ko'plab soliq va yig'imlar meros qolgandi. Masalan, aholidan mahalliy hukumat xazinasiga uchun mo'g'ullar quyidagi soliqlarni undirganlar: 1) yer yoki daromad solig'i. Oliy mansabdorlar bu soliqdan ozod qilingan; 2) kubchur — ko'chmanchi aholidan olingan; 3) targ'u — xunarmandlar va savdogarlardan olinib, ishlab chiqarilgan yoki sotilgan molning o'ttizdan bir qismi hajmi hisobida belgilangan; 4) tuz solig'i; 5) jon yoki kumush solig'i. Aholi turli elchilar to'xtagan joylarda ularga ot-ulov etkazib bergan, oziq-ovqat bilan ta'minlagan. Bundan tashkari, mamlakat hunarmandlari tugun deb atalgan maxsus to'lov to'lab turganlar. Shuni ta'kidlash kerakki, Amir Temur davrida mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi hal qiluvchi rol o'ynagan. Milliy daromadning eng ko'p qismi shu sohada yaratilgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini asosan er egalari bo'lgan dehqonlar va erga ishlov beruvchi ijarachilar amalga oshirganlar. Bu davrda asosan dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan ikki turdagi: xiroj va ushr solig'i amal qilgan. Davlat xazinasiga keladigan daromadlarning aksariyati ana shu soliqlarga asoslangan. Fikrimizcha, Amir Temur davlati moliyasini tahlil etganda markaziy va mahalliy xazinalarga tushadigan barcha to'lovlar bilan birga, ayrim solikli va soliqsiz daromadlar ham e'tiborda tutilishi kerak. Quyida shulardan ayrimlarini keltiramiz: chorvachilikdan keladigan daromadlar; qo'shib olingan mamlakatlarda xazinalarini musodara qilishdan keladigan daromadlar; oltin va kumushdan pul zarb qilishdan keladigan daromadlar; nodir metallarni qazib olish va ularni sotishdan keladigan daromadlar; bedarak yo'qolgan shaxslardan qolgan, vorissiz mol-mulklar, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalar, sovg'alar, xazinaga takdim qilingan boshqa daromadlar; tashqi savdoni rivojlantirishdan tushgan daromadlar. Shuni aytish kerakki, chorvachilikdan

keladigan daromadlar xazinaga to'liq miqdorda o'tmasdan, soliqning ko'p qismi natura tarzida undirilgan, chunki ular hisobidan sipohilar va saroy xizmatchilari oziq-ovqat bilan ta'minlanar edi. Ba'zan ot, tuya va boshqa hayvonlar sipohilar hamda amaldorlar uchun ulov vositasi sifatida xizmat qilgan edi. Manbalarda 40 qo'ydan — 1 qo'y, 120 tadan 200 tagacha qo'ydan — 2, 300 ko'ydan — 3 qo'y olingani yoki bir bosh otdan 2 dinor olingani haqida tegishli ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, Amir Temurning maxsus yaylovlari bo'lib, ularda zotli otlar parvarish qilingan, saroyni ta'minlaydigan alohida chorva xo'jaliklari mavjud bo'lgan. Tabiiyki, ularning narxi minglab dinorga teng ekanligini hisobga olib, Amir Temur zamonida tutash mintaqalarda yirik bojxonalar barpo qilindi. Bulardan biri Kavkaz tog' tizmalari Kaspiy dengiziga tutashgan erda joylashgan Darband bojxonasi, ikkinchisi ham shu nom bilan atalib, Samarqand bilan Balx o'rtasida joylashgan SHahrisabzdan ikki kunlik masofada barpo etilgan. Ana shu bojxonalar markaziy xazinaga har yili juda katta miqdorda mablag' o'tkazar edi.

Xazinaning kam tilga olinadigan daromadlari haqida so'z borar ekan, Amir Temur davlati tarkibiga kirgan va xazinasini musodara qilingan mamlakatlardan markaziy xazinaga kelib tushadigan o'lja sifatidagi noyob mol-mulklarni, qazib olingan nodir metallar, oltin, kumush yombilari va ko'plab boshqa boyliklarni ham tilga olish joiz. Ko'ksaroydagi yirik xazina jamg'armaaslahaxonalarda Amir Temur To'xtamishxonni tor-mor qilgandan keyin[^] Tabriz va boshqa shaharlardan, Oltin O'rda xazinalaridan qo'lga kiritilgan ashyolar, Dehlidan keltirilgan, aslida hind hunarmandlari yuksak did bilan yasagan jozibali osori atiqalar, hatto Turkiya sultonlari salib yurishlari ishtirokchilaridan musodara qilgan va boshqa xilma-xil noyob tarixiy anjomlar mavjud bo'lganligi bir qator tarixiy manbalarda tilga olingan. Soliqlar tushumi kabi ular ham ro'yxatga olingan, lekin sipohlar o'rtasida taqsimlangan qismi ro'yxatga kiritilmagan. Afsuski, bu ulkan xazina kitobi bizning davrimizga qadar saqlanmagan. Bulardan tashqari, xazinaga oltin va kumush konlari, nodir metallar qazilmalaridan keltiriladigan durdonalarni ham hisobga olish zarur. Amir Temur zamonida uning saltanatining 40 ga yaqin shahrida, shu jumladan Samarqandda pul zarb qilinib, bu korxonalar daromadlarining 3/4 qismi xazinaga ajratilgan. Xo'sh, shunchalik katta xazinaga ega bo'lganligiga qaramay, Amir Temur nima sababdan fuqarolarni soliqdan butkul ozod qilmagan, degan savol tug'ilishi tabiiy. Amir Temur ulkan harbiy muvaffaqiyatlarni nishonlash uchun ayrim hollarda Samarqand va boshqa shaharlar, hatto qishloqlar fuqarolarini 1 — 2 yilga soliqdan ozod qilgan. Lekin xazinaning ahvoli hamma vaqt ham bir xil

bo'lmagan. Xazinadagi mablag'lar etishmaganida sipohlarga pul o'rniga kvitansiya berilganligi ham solnomalarda qayd qilingan. Amir Temur o'ziga qarashli mamlakat aholisini barcha soliqlardan ozod etish xazina tamoyillariga zidligini yaxshi bilar edi. YOshlik davrida Abulqosim Firdavsiy asarlarini chuqur o'rgangan Amir Temur mamlakatni boshqarishda soliqlarning ahamiyati xususida, jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlar o'rnatishda, umuman davlatni boshqarishda ular muhim vosita ekanligi xaqida tepgshli xulosalar chiqargan. Davlatning maxalliy va markaziy bo'g'inlari xarajatlarini ma'muriy idora va saroyning umumny sarflari; harbiy xarajatlar va harbiy ahamiyatga molik xarajatlar; mamlakat obodonchiligi va yurt farovonligini oshirishga qaratilgan xarajatlar; ilm-fan, madaniy va diniy tadbirlar bilan bog'liq xarajatlar; ijtimoiy himoya xarajatlari va boshqa — sarflarga ajratish mumkin. Ma'muriy-boshqaruv harajatlari xususida so'z yuritilar ekan, Amir Temur saltanatining 4 ulusga bo'lingani, xar bir ulus bir necha mamlakatdan iborat ekanligi va ularni Amir Temurning o'g'illari boshqarganligini ko'rsatib o'tish kerak. Masalan, Mironshoh Ozarboyjon. Iroq, Armaniston hududlarini boshqarib. ularni birlashtirgan ulusga hokim bo'jan. Har bir mamlakat o'z navbatida qator tuman va shaharlarga bo'lingan. Bu boshkaruv usuli mo'g'ullardan ko'chgan. Har bir ulus ixtiyorida o'rta hisob bilan 7 mingdan 12 mingga qadar sipohi bo'lgan. Ularga ulus mahkamasidan haq to'langan. Binobarin, uluslar harbiy xarajatlarining va mahalliy mahkamalar xarajatlarining talaygina qismini o'zida markazlashtirmay, uni mahalliy mahkamalar zimmasiga yuklagan. Ayni vaqtda barcha kirim-chiqimlar nazorat qilib turilgan. Amir Temur davrida byudjetning dastlabki kurtaklari paydo bo'la boshlagan. Gap shundaki, ilgari daromad va xarajatlar xazinabon daftarida qayd qilingan bo'lsa, endilikda, bu vazifa har bir vazirlik bo'yicha mehnat taqsimoti asosida amalga oshirila boshlandi; daromad va xarajatlar ixtisoslashgan guruhlar bo'yicha hisobga olinadigan bo'ldi. Amir Temur devonidagi 4 vazir tomonidan kirim-chiqim smetasini tuzish mahalliy mahkamalarga nisbatan qulayroq bo'lgan esa-da, mahalliy mahkamalarda xarajat turlarining ko'pligi ishni ancha murakkablashtirgan bo'lishi kerak. Markaziy devonda xizmat qiluvchi vazirlar o'rtasidagi mehnat taqsimotida moliya masalalari markaziy o'rin egallagan. Bunda har bir vazirlik bo'yicha kirim-chiqim smetasi tuzilgan, tushadigan daromadlar va qilingan harajatlar har kuni hisoblab borilgan. Byudjet kurtaklari faqat markaziy devondagina emas, balki mahalliy boshqaruv mahkamalarida ham rivojlana boshlagan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur saltanati xazinasiga kelib tushadigan daromadlar mamlakat poytaxti Samarqand shahriga kelib tushgan.

Markaziy devonda xizmat qiluvchi vazirlar o'rtasidagi mehnat taqsimotida moliya masalalari markaziy o'rin egallagan. Markaziy xazinadan obodonchilik harbiy va boshqa sohalarga mablag' ajratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Амир Темур ва Темурийлай даври маданият ва санъат.-Т.: Ф. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1996.- 88 б

2. Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир: Ҳ.Кароматов. Муаллифлар жамоаси: С.Саидқосимов (раҳбар), А.Аҳмедов, Б.Аҳмедов ва бошқ. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.121.

3. Ҳавофий Фасиҳ Аҳмад. “Мужмали Фасиҳий”дан // Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида: (Рисола) / Б.Аҳмедов, У.Уватов, Ф.Каримов ва бошқ. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б.218.

4. Ўзидий Шарафуддин Али. Зафарнома // Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков; Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғулумов ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.290-291

5. Kenjayev S.N. Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An) // Impact Factor: 9.2, ISSN-L: 2544-980X.- Miasto Przyszłości Kielce,2022.112-114 P.

6. Ру Ж.-П. Тамерлан / Жан-Поль Ру; пер с фр. Е.А. Соколова; послесл; В.Л. Егорова. Прил. - 4-е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – 295 с [9] с.: ил.

7. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати (тарихий очерк). – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1994. – 160 б.

8. Sardor Nurmurodovich Kenjayev, Komron Mahmud o'g'li Zayniev. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida (cyberleninka.ru) Vol. 3 No. (2022): Science and Education.634-639.

9. Kenjayev S.N. Amir Temur davlati va Xitoy(Min) imperiyasi o'rtasidagi savdo aloqalari tarixidan // “O'tmishga nazar” 4 jild, 10-son, Doi Jurnal 10.26739/2181-9599. – TOSHKENT 2021.- Б.67-74. ИЗ ИСТОРИИ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ ГОСУДАРСТВА АМИРА ТЕМУРА И КИТАЙСКОЙ (МИН) ИМПЕРИИ | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ (tadqiqot.uz)

10. Кенжаев С.Н. Амир темур ва хитой давлати ўртасидаги харбий муносабатлар ўзаро тўқнашув хафининг вужудга келиши ЎЗМУГА

Кенжаев С.Н (fayllar.org)// ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ, 1/9. – Тошкент, 2022.-Б.18-21.
O'zMU xabarlarlari Вестник НУУз АСТА NUUZ

11. Сардор КЕНЖАЕВ. Amir Temurning Xitoy(Min davlati) harbiy yurishga tayyorgarlik jarayonlari va uni keltirib chiqaruvchi omillar // SOHIBQIRON YULDUZI. Ижтимоий-тарихий, илмий ва оммабоп журнал. №3(49). –Қарши, 2022.25-30 б.

12. Kenjayev S.N. . Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An) | Miasto Przyszłości (miastoprzyszlosci.com.pl) // Impact Factor: 9.2, ISSN-L: 2544-980X.- Miasto Przyszłości Kielce,2022.112-114 P

13. Кенжаев С.Н. Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari va Tayzi o'g'lon faoliyati (cyberleninka.ru) // Science and education scientific journal, ISSN 2181-0842 VOLUME 3, ISSUE 5. ISSN 2181-0842.- Т.:1493-1497 б.

14. Кенжаев С.Н. Trade and ekonomik relations between Amir Temur's state and the Min dynasty// International symposium of young scholars. – USA,2021. 480-481 P. <https://papers.online>

[conferences.com/index.php/titfl/article/download/485/455/1746](https://papers.online)

15. Кенжаев С.Н. Faktors of Amir Temur's military march to china and the international political situation // Euro Asian Conference on Analytical Research, ISBN: 978-1-913482-99-2.-Germaniya, 2021.115-117 p. (buxdupi.uz) 4.Germaniya+pdf.+Kenjayev+S.N..pdf

16. Кенжаев С.Н. Хитой сари юришга тайёргарлик жараёнлари ёхуд Амир Темур ҳаётининг сўнги кунлари. // “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Вухоро, 2022. 52-57 б.Хитой сари юришга та й ёргарлик жараёнлари....

10.Кенжаев,С.Н.(2022). АМИР ТЕМУР ВА ХИТОЙ ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАРИ | Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot (in-academy.uz) - Zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot, 1(26), 130–135. извлечено от [https://in-](https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/5925)

[cademy.uz/index.php/zdit/article/view/5925](https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/5925). Тошкент, 2022.18-22 б.

17. КЕНЖАЕВ , С. . АМИР ТЕМУРНИНГ ХИТОЙ ЮРИШИ ВАҚТИДА ЖАНУБИЙ ВА ШИМОЛИЙ САРҲАДЛАР ХАВФСИЗЛИГИНИ МАСАЛАЛАРИ. | Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar (in-academy.uz) (2022). // Zamonaviy Dunyoda Tabiiy Fanlar: Nazariy Va Amaliy Izlanishlar, 1(25), 18–22. извлечено от [https://in-](https://in-academy.uz/index.php/zdtf/article/view/5923)
[academy.uz/index.php/zdtf/article/view/5923](https://in-academy.uz/index.php/zdtf/article/view/5923)–Toshkent, 2022. 131-134 б.

18. Кенжаев С. Н. Important issues of important of improving the immunity of security, international harmony, religious tolerance in the state of Amir Temur // Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари. – Бухоро, 2022. 238-241 б. Продолжение работы на этом сайте заблокировано. (buxdupi.uz)

19. Кенжаев С. Н. АМИР ТЕМУР ВА ХИТОЙ МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРЛАР ТАБАҚАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ ҲАЁТДАГИ ЎРНИ | Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya (in-academy.uz) // «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya.–Toshkent, 2022.- 1 pp. 58-60 (7)

20. Kenjayev S. THE IMPORTANCE OF THE NORTHERN AND SOUTHERN NETWORK OF THE GREAT SILK ROAD IN AMIR TEMUR'S RELATIONS WITH CHINA | Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot (in-academy.uz) (2022) 1(28), 207–209. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7456181>

21. Kenjayev S.N. Амир Темурнинг Хитой билан муносабатларида Шимолий савдо йўлининг аҳамияти/ International cjnferenct dedicated to the role and importanct of innovative education in the 21st centyre 2022/7.197-199.

22. Kenjayev S.N. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida. - Science and Education, 2022

23. Kenjayev, S Murtazoyev, S Nematova, S Melsova.ROMITAN HUDUDIDA DASTLABGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING TAHLILI//S Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya 1 (7), 53-57

file:///C:/Users/Admin/Downloads/ZDIFT0713%20(1).pdf. Кенжаев: ва Хитой муносабатлар...

24. S.N.Kenjayev, K.M. Zayniev. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida //- Science and Education, 2022 AmirRelated articles All 2 versions

25. Жасур Латипов, Сардор Кенжаев / Елюй Чуцай: Мўғулар империясининг буюк мутафаккири [Матн] : рисола / Ж.Латипов, С.Кенжаев.- Бухоро: “БУХОРО ДЕТЕРМИНАНТИ”МЧЖнинг Камолот нашриёти, 2022-48 б.

26. Kenjayev, S. N. o'g'li, & Xurramova, G. I. qizi. (2023). USMONIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA QOZILAR TAYYORLASH MASALARI XUSUSIDA AYRIM CHIZGILAR. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS ", 2(2), 144–153. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1300>. |

Zenodo

<https://academicsresearch.com/index.php/iditys/article/view/1817>

27. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678097>

28. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7675191>

29. <https://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1300>

30. <https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/1193>

31. <https://scholar.google.ru/citations?hl=en&user=TlZD1hAAAAAJ>

32. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7456181>

33. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7426147>

34. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7426141>

35. Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li, Xolmurodova Madina, Salimova Nozima, Amonova Ruhshoda, & Aktamova Nafosat. (2023, February 26). MIN SULOLASI DAVRIDAGI XITOI ARMIYASI (XIV-ASRNING 70 YILLARI - XV-ASR BOSHLARI). TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE, Ankara, Turkey. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678098>

<https://academicsresearch.com/index.php/icpass/article/view/1864>

36. Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li, Nematova Nigina, Xalilov Behruz, Mardonova Feruza, & Mirzayev Nusrat. (2023, February 13). TEMURIYZODA SHAHZODALARNING HINDISTON EGALLASH JARAYONIDAGI JASORATI XUSUSIDA. PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS, Australia, Melbourne. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7692302>

37. Кенджаев Сардор, Мелсова Шахина, Юсупджонова Марджона, Раупова Нозигуль и Рахматов Мурод. (2023, 26 февраля). ПРИГОТОВЛЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА К ИНДИЙСКОЙ ВОЕННОЙ КАМПАНИИ. ПРОБЛЕМЫ И НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ, Австралия, Мельбурн. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678582>. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678581>

38. Кенджаев Сардор Нурмуродович, Уринов Шахджахан Джамшидович, Хакимова Дилнура И Полатова Шохинабону. (2023, 24 февраля). НЕКОТОРАЯ ИНФОРМАЦИЯ О ХИЩНЫХ КОШАЧЬИХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ЛИТЕРАТУРЕ ПО ИСТОРИИ ДРЕВНЕГО МИРА. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ В ГЛОБАЛЬНОЙ НАУКЕ, Бостон, США. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7675192>

39. Nurmurod Son, K. S. (2022). Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An). *Miasto Przyszłości*, 29, 112–114. Retrieved from

<http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/720>.

40. <http://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1365>

41. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678098>

42. <http://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1300>

43. Том 2 № 2 (2022): Maqola va tezislar 2022 (buxdupi.uz)

44. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/720>
45. <https://zenodo.org/record/7419258#.ZDRLUXZByM8>
46. <https://zenodo.org/record/7472104#.ZDRMeHZByM8>